

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH, ILMIY O‘RGANISH VA
TARG‘IB QILISHNI RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san‘atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, ro‘yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ‘ib qilish va saqlash;

maqom va baxshichilik san‘atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish;

nomoddiy madaniy merosning noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan namunalarining, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro‘yxatlarga kiritilishiga erishish;

nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta‘minlash;

nomoddiy madaniy meros ta‘limning barcha bosqichlarida o‘rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash.

2. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov):

taniqli baxshilar ishtirokida folklor teatrlashtirilgan tomoshalarni sahnalashtirsin va ularning respublika teatrlarida namoyish etilishini tashkil qilsin;

xalq dostonlari va ertaklar asosida bolalar uchun multfilmlar yaratish choralari ko‘rsin.

3. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishni ta‘minlash bo‘yicha shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra 2024-yil 1-apreldan boshlab:

a) noyob va (yoki) yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo‘yicha:

Madaniyat vazirligi tomonidan birinchi bosqichda ushbu toifadagi nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avaylash, ommalashtirish va keyingi avlodga yetkazish borasidagi faoliyatida ko‘maklashiladi hamda ularning bu boradagi faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari belgilab beriladi;

ushbu ko‘rsatkichlarni bajargan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi shaxslar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasi hisobidan har oyda 5 million so‘m miqdorida rag‘batlantirib boriladi;

b) alohida ahamiyatga ega bo‘lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo‘yicha:

nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olish va keng targ‘ib qilish, jumladan Internet va ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilish uchun har yili 50 ta audiovizual asar yaratishga davlat buyurtmasi beriladi;

audiovizual asar yaratish bo‘yicha davlat buyurtmasi Madaniyat vazirligi tomonidan tuziladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida amalga oshiriladi.

4. Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, “Hunarmand” uyushmasi va Madaniy meros agentligining nomoddiy madaniy meros namunalarini “tayyorlash — o‘rgatish — tiklash — saqlash — ommalashtirish” yaxlit uzluksiz tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha taklifi ma‘qullansin.

Bunda, tajriba tariqasida Farg‘ona viloyati hokimligi Madaniyat vazirligi va “Hunarmand” uyushmasi bilan birgalikda Rishton xalqaro kulolchilik markazi va Marg‘ilon shahridagi Hunarmandchilik markazida tegishlicha quyidagilarni ta‘minlaydi:

atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlari tayyorlanadi, ularni tayyorlash “ustoz-shogird” tamoyili asosida yoshlarga o‘rgatiladi, ilmiy tadqiqotlar, ko‘rgazma va namoyishlar tashkil qilinadi, ularning savdosi yo‘lga qo‘yiladi;

doimiy ekspozitsiyalar yaratiladi, shuningdek, atlas va adras mahsulotlari hamda kulolchilik buyumlarining eng yaxshi namunalari “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasi doirasida davlat muzeylariga xarid qilib olinadi.

Madaniyat vazirligi 2026-yil 1-yanvarga qadar tajriba natijasini tahlil qilgan holda ushbu tizimni nomoddiy madaniy meros namunalarining boshqa turlari bo‘yicha joriy etish hamda ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

5. Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish rejasi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) ushbu qarorga [1-ilovada](#) tasdiqlangan nomoddiy madaniy meros namunalarini kompleks rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy va ijodiy maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘ysin, shuningdek, 2025-yil 1-yanvarga qadar ularning natijadorligini o‘rgangan holda ushbu tizimni nomoddiy madaniy meros namunalarining boshqa turlari bo‘yicha yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин.

6. Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) tashkil etilgani inobatga olinsin hamda uning asosiy vazifalari [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

7. Institutda etnofolklor laboratoriyasi tashkil etilib, unda:

yo‘qolib ketgan noyob nomoddiy madaniy meros namunalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlarni qayta tiklash;

nomoddiy madaniy meros namunalarining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi va kelajakdagi holatini modellashtirish;

nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi materiallar, axborot tashuvchi vositalar, etnofolklor ekspeditsiyalarida to‘plangan materiallarni texnologiyalar o‘zgarishiga mutanosib ravishda zamonaviy formatga o‘tkazib borish hamda audiovizuallashtirish yo‘lga qo‘yilsin.

8. Belgilansinki:

Institut ixtisoslashtirilgan davlat ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi hamda uning xodimlariga Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari qo‘llaniladi;

Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (M. Xojimatov) va uning tizimidagi muassasalar Institut tomonidan bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar (tovarlar) bo‘yicha asosiy buyurtmachi hisoblanadi;

Institutda tegishli ixtisoslashgan ilmiy kengashlar faoliyat olib boradi;

Respublika baxshichilik san’ati markazi Institut tizimiga o‘tkaziladi;

Respublika baxshichilik san’ati markazi 2024-yildan boshlab respublika budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tizimiga o‘tkazilib, Madaniyat vazirligiga tegishli Toshkent shahridagi binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtiriladi.

Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda Institut faoliyatini, shu jumladan unda zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan etnofolklor laboratoriyasini tashkil etishga oid Hukumat qarori loyahasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

9. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

Institutga 2024-yildan boshlab har yili to‘lov-kontrakt shartnomasi asosida tayanch doktorantura uchun kamida 3 tadan, stajor-tadqiqotchilik uchun kamida 2 tadan kvota ajratilishini;

nomoddiy madaniy meros namunalarini tadqiq etish, xususan, maqom va baxshichilik san’ati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasining tanlovlar asosida shakllantirilishini ta’minlasin.

10. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yildan boshlab har yili madaniyatshunoslik, nomoddiy madaniy meros sohalari, xususan, maqom va baxshichilik san’ati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan ilmiy xodimlar xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalarga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuboriladi.

Belgilansinki:

xorijiy oliy ta'lim muassasalariga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuboriladigan nomzodlar pedagogik-ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan, magistrlik darajasiga ega bo'lgan iqtidorli va samarali faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar o'rtasida ochiq tanlov asosida saralab olinadi;

xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qituvchi va xodimlarni falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qilish uchun yuborish bilan bog'liq xarajatlar "El-yurt umidi" jamg'armasiga xorijda doktoranturada ta'lim olish dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

11. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishda madaniyat va ta'lim tashkilotlarining uzviy hamkorligi quyidagi tartibda yo'lga qo'yilsin:

ta'lim oluvchilar etnofolklor ekspeditsiyalariga va davlat buyurtmalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga jalb etiladi;

katta amaliy tajribaga ega bo'lgan nomoddiy madaniy meros saqlovchi shaxslar va etnofolklor ekspeditsiyalari ishtirokchilariga, ularning mutaxassisligidan qat'i nazar, istisno tariqasida, Institut ilmiy kengashining tavsiyasiga asosan amaliyot darslarini o'tishi uchun ruxsat beriladi.

Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ushbu bandeda belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlasin.

12. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev), Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A. Ikramov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xojimatov), Yozuvchilar uyushmasi (S. Saidov) bilan birgalikda:

Madaniyat vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan o'zbek xalq dostonlarining jonli ijrodan yozib olingan namunalarini hamda "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildlik to'plamini nashr etish ishlarining yakunlanishini ta'minlasin;

2024-yildan boshlab, har yili mart oyida "Milliy qadriyatlar oyligi" tadbirlari va xalq sayillarini o'tkazib borsin.

13. Quyidagilar:

YUNESKONing xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejasi [4-ilovaga](#) muvofiq;

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasi [5-ilovaga](#) muvofiq;

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish rejasi [6-ilovaga](#) muvofiq;

2024 — 2026-yillarda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) [7-ilovaga](#) muvofiq;

2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha "yo'l xaritasi" [8-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, kelgusi yillar uchun ushbu bandeda nazarda tutilgan rejalar, maqsadli ko'rsatkichlar va "yo'l xaritasi" Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xojimatov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov), Fanlar akademiyasi (B. Yuldashev) bilan birgalikda 2024-yil 1-oktabrga qadar "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratsin hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilsin.

Belgilansinki:

a) "Qadriyat" elektron platformasida:

nomoddiy madaniy merosni, shu jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini o'zida saqlovchi va yetkazuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ularning ro'yxati;

nomoddiy madaniy merosni, jumladan maqom va baxshichilik san'ati namunalarini elektron hujjatlashtirish, hisobini yuritish va ular haqidagi materiallar, matn, foto va boshqa audiovizual asarlar;

sohaga oid xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalari materiallari, xalqaro ro'yxatlarga kiritilgan nomoddiy madaniy meros namunalari haqidagi batafsil ma'lumotlar joylashtiriladi hamda muntazam ravishda yangilab boriladi;

b) "Qadriyat" elektron platformasini yaratish bilan bog'liq xarajatlar Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasiga ajratilgan budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi hamda elektron platformani doimiy ravishda modernizatsiya qilish, texnik qo'llab-quvvatlash va faoliyat yuritishi Institut tomonidan ta'minlanadi.

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Madaniyat vazirligi bilan birgalikda hududlarda madaniyat va istirohat bog'larini, mahalla guzarlarini, turizm maskanlarini va aholi gavjum savdo va ko'ngilochar joylarni nomoddiy madaniy meros namunalari bilan badiiy bezash amaliyotini yo'lga qo'ysin.

16. Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 25-dekabr,
PQ-405-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
1-ILOVA

Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish

REJASI

T/r	Nomoddiy madaniy meros namunalari	Yetakchi ijodiy markazlar	Qo'llab-quvvatlashga tashabbus bildirgan mas'ul tashkilot	Ijodiy va amaliy rivojlantirishga mas'ullar	Ilmiy tadqiq etishga mas'ullar
1.	Maqom san'ati	O'zbek milliy maqom san'ati markazi	"O'zavtosanoat" AJ	Munajat Yo'lchiyeva — O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti	Soib Begmatov — san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, Otanazar Matyoqubov — san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

2.	Katta ashula			Abdunabi Ibragimov — O‘zbekiston xalq hofizi	Rustam Abdullayev — san’atshunoslik fanlari doktori, professor
3.	Baxshichilik san’ati	Respublika baxshichilik san’ati markazi	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	Qaxxor Rahimov — O‘zbekiston xalq baxshisi	Jabbor Eshonqulov — filologiya fanlari doktori, professor, Shomirza Turdimov — filologiya fanlari doktori, professor
4.	Jirov-qo‘biz ijrochiligi	O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali		Salomat Ayapov — Qoraqalpoq xalq jirovi	Sarigul Baxodirova — filologiya fanlari doktori, professor, O‘rozali Toshmatov — folklorshunos, professor
5.	Do‘ppido‘zlik	O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti	“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi	Mukarram Ibrohimova — do‘ppido‘zlar sulolasining beshinchi avlodi vakili	Ilmira Gyul — san’atshunoslik fanlari doktori, professor
6.	Qorabayir	Qorabayir otlari mahorat maktabi (<i>Termiz tumani</i>)	Milliy gvardiya, O‘zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi	Behzod Qurbonov — ot sporti bo‘yicha xalqaro toifadagi usta	Abdumurod Tillovov — filologiya fanlari nomzodi, Salimjon Yo‘ldoshev — tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
7.	Egar-jabduq yasash an‘analari			Akbar Qodirov — egarchi usta	
8.	Atlas va adras	Hunarmandchilik markazi (<i>Marg‘ilon shahri</i>)	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi	Ibrohimjon Sultonov — mohir usta	Shaxlo Abdullayeva — san’atshunoslik fanlari nomzodi
9.	Kulolchilik an‘analari	Rishton xalqaro kulolchilik markazi	Savdo-sanoat palatasi	Alisher Rahimov — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, kulol	Surayyo Aliyeva — san’atshunoslik fanlari doktori, professor

10.	Kashtachilik	Navoiy ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati (<i>Nurota tumani</i>)		Madina Qosimboyeva — mashhur kashtado'z	Binafsha Nodir — san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
11.	Zardo'zlik va zargarlik	Buxoro shahri	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ	Fasxiddin Dadamammedov — O'zbekiston xalq ustasi, zargar, zargarlar sulolasining to'rtinchi avlodi vakili, Mahfuza Salimova — zardo'z, zardo'zlar sulolasining to'rtinchi avlodi vakili	Akbar Hakimov — O'zFA akademigi, O'zBA akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor
12.	Dutor ijrochiligi	Toshkent shahri	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	Malika Ziyayeva — O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist	Ozodgul Toshmatova — san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor

Izoh: ushbu rejada belgilangan ijodiy va amaliy rivojlantirishga hamda ilmiy tadqiq etishga mas'ullar tarkibiga madaniyat vazirining buyrug'i bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Ushbu rejada belgilangan nomoddiy madaniy meros namunalarini kompleks rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy va ijodiy maktablarning faoliyati tegishli yetakchi ijodiy markazlarda yuridik shaxs tashkil etilmagan holda yo'lga qo'yiladi.

Buxoro shahri va Toshkent shahrida yetakchi ijodiy markazlar tegishli Buxoro viloyati hokimligi va Toshkent shahri hokimligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
2-ILOVA

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining

ASOSIY VAZIFALARI

Quyidagilar Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari hisoblanadi:

madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy baza, institutsional tizim va madaniyat muassasalari faoliyatini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar tayyorlash;

xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, yurtdoshlarimizni milliy madaniyatimiz va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalaridan keng bahramand etish, jamiyatning madaniy-estetik ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

madaniyat tashkilotlari, jumladan, madaniyat markazlari, teatrlar, sirk muassasalari, konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog'larining faoliyatini, shuningdek, madaniy-ommaviy, konsert-

tomosha, gastrol tadbirlari, xalq ijodiyoti, badiiy hunarmandchilik, amaliy san'at turlari hamda xalq o'yinlarini ilmiy o'rganish va ularni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash;

madaniyat, san'at, badiiy ijod, madaniyatshunoslik hamda nomoddiy madaniy meros sohasida fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, etnofolklor ekspeditsiyalarini uyushtirish, sohada innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy va amaliy grant loyihalarini amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy meros muhofazasini tashkil etishning nazariy va ilmiy metodologik asoslarini yaratish;

mamlakatimiz hududlaridagi nomoddiy madaniy meros elementlarining milliy ro'yxatini yuritish, hujjatlashtirish, muhofaza va nazorat qilish, bu yo'nalishda davriy hisobotlarning tayyorlanishi va doimiy ravishda yangilab, to'ldirib borilishini ta'minlash, ularning namunalari umume'tirof etilgan xalqaro ro'yxatlarga kiritish uchun tegishli hujjatlarni ishlab chiqish;

aholi o'rtasida, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish, ommalashtirish hamda bu sohada ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqish;

ta'limning barcha turlari uchun nomoddiy madaniy meros sohasi bo'yicha ta'lim standartlari va fan dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, shu jumladan, audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallarni tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
3-ILOVA

YUNESKONing xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari

RO'YXATI

I. Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxati

1. Markaziy Osiyo an'anaviy kashtachiligi
2. O'zbekiston zardo'zlik maktablari san'ati
3. O'zbekiston zargarlik san'ati
4. O'zbekiston do'ppido'zlik maktablari san'ati
5. O'zbek an'anaviy kandakorlik san'ati
6. O'zbekiston gilamdo'zlik an'analari
7. Beshik yasash va u bilan bog'liq an'analar
8. O'zbek nonlari
9. Qorabayir otlarini parvarish qilishga oid an'analar
10. "Alpomish" dostoni
11. Ko'pkari (*nomzodnomaga qo'shilish*)
12. O'tov yasash an'analari (*nomzodnomaga qo'shilish*)
13. "Chavgon" o'yini (*nomzodnomaga qo'shilish*)
14. O'zbekiston pichoqchilik san'ati
15. Choy ichish bilan bog'liq urf-odatlar (*nomzodnomaga qo'shilish*)
16. O'zbek kurash san'ati
17. Tanovar — O'zbekiston milliy raqsi

II. Zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros ro'yxati

18. Jirovchilik san'ati va qo'biz ijrochiligi
19. Egar-jabduq yasash bilan bog'liq an'analar

III. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasidagi eng ilg'or tajribalar reyestri

20. O'zbekiston doira ijrochiligi an'alarini saqlash tajribasi

Izoh: ushbu ro'yxatga YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Ushbu ro'yxatga muvofiq nomzodnoma hujjatlari tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi, mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qarori bilan tasdiqlangan Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalari ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish rejasida belgilangan qo'llab-quvvatlashga mas'ul tashkilot mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
4-ILOVA

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish

REJASI

T/r	Ekspeditsiyalar tashkil etiladigan hudud va mamlakatlar nomi	Ekspeditsiyalarni tashkil etish muddati
Mahalliy ekspeditsiyalar		
1.	Toshkent shahri, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari	2024-yil may-iyun
2.	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari	2024-yil may-iyun
3.	Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari	2024-yil iyul-avgust
4.	Buxoro va Navoiy viloyatlari	2024-yil oktyabr-noyabr
5.	Samarqand va Jizzax viloyatlari	2025-yil fevral — aprel
6.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati	2025-yil may — iyul
Xorijiy ekspeditsiyalar		
7.	Qirg'iz Respublikasi	2024-yil iyul
8.	Qozog'iston Respublikasi	2025-yil may
9.	Tojikiston Respublikasi	2025-yil sentyabr
10.	Turkiya Respublikasi	2025-yil oktyabr
11.	Turkmaniston	2026-yil aprel
12.	Ozarbayjon Respublikasi	2026-yil may
13.	Rossiya Federatsiyasi	2026-yil iyul
14.	Xitoy Xalq Respublikasi	2026-yil sentyabr

Izoh: ushbu rejada belgilangan ekspeditsiyalar Madaniyat vazirligi tomonidan Tashqi ishlar vazirligi va tegishli xorijiy davlat bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Ushbu rejaga, zarur hollarda, Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri tomonidan o'zgartirish kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
5-ILOVA

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasini

T/r	Fundamental va maqsadli grantlar nomi	Grantlarni taqdim etish muddati
I. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari (<i>baxshichilik namunalari</i>)		
1.	“Alpomish” dostoni	2024-2025-yillar
2.	“Go'ro'g'li” dostoni	2024-2025-yillar
3.	“Go'ro'g'li” turkumidan “Oltin qaboq” dostoni	2025-2026-yillar
4.	“Oshiq G'arib va Shohsanam” dostoni	2025-2026-yillar
II. Ijrochilik san'ati (<i>musiqa, raqs va xalq tomosha san'ati</i>)		
5.	Ko'hna cholg'ular ijrochiligi hamda uning tarixiy ahamiyati	2024-2025-yillar
6.	Katta ashula va Farg'ona askiyasi ijrosi	2024-2025-yillar

7.	O'zbek va qoraqalpoq xalq raqs san'atining o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy takomili	2024 — 2026-yillar
III. Jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari		
8.	Mavsumiy marosimlar bilan bog'liq folklor namunalarini yozib olish va ilmiy tadqiq etish	2024-2025-yillar
9.	Oilaviy marosimlarning mahalliy xususiyatlari	2024 — 2026-yillar
IV. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar (pazandachilik, xalq tabobati, bog'dorchilik, dehqonchilik va boshqalar)		
10.	Qoraqalpoq milliy taomlarini ilmiy o'rganish	2024-2025-yillar
11.	O'zbek taqvimiy marosimlari namunalarini ilmiy o'rganish	2024 — 2026-yillar
V. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar		
12.	O'zbek milliy cholg'ulari sozgarligining o'ziga xos ilmiy-tarixiy evolyutsiyasi	2024-2025-yillar
13.	O'zbek do'ppido'zlik san'ati	2024 — 2026-yillar
14.	Kandakorlik maktablari san'ati	2024-2025-yillar
15.	Temirchilik va pichoqchilik san'ati	2024 — 2026-yillar

Izoh: ushbu rejaning bajarilishiga Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi mas'ul hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
6-ILOVA

2024 — 2026-yillarda nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish

REJASI

T/r	Raqamli hujjatlashtiriladigan nomoddiy madaniy meros hujjatlari	Amalga oshirish muddati
1.	Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutining arxivida saqlanayotgan nomoddiy madaniy meros namunalari (<i>doston, maqom, folklor, xalq qo'shiqlari, cholg'u pyesa va boshqalar</i>) materiallari	2024-2025-yillar
2.	Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining folklor arxividagi 2 368 ta hujjat birligida saqlanayotgan arxiv materiallari	2024-2025-yillar
3.	Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida saqlanayotgan folklor materiallari	2024 — 2026-yillar
4.	Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti arxivida Xorazm maqomlari va Xorazm dutor maqomlarining perfokarta shaklida saqlanayotgan namunalari	2025-2026-yillar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
7-ILOVA

2024 — 2026-yillarda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari)

T/r	Ustuvor vazifalar	Maqsadli ko'rsatkichlar	Yillar kesimida			Mas'ul ijrochilar
			2024-yil	2025-yil	2026-yil	

1.	Yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash	Ilmiy salohiyat, foizda	35	40	50	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Himoya qilinadigan falsafa doktori dissertatsiyalari (PhD) soni	1	3	5	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Himoya qilinadigan doktorlik dissertatsiyalari (DSc) soni		1	2	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Falsafa doktori ilmiy darajasini olishga talabgor doktorantlar (PhD) soni	10	15	20	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Fan doktori ilmiy darajasini olishga talabgor doktorantlar (DSc) soni	4	6	8	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2.	Professor-o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati natijadorligi	Darsliklar soni	4	6	10	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		O'quv qo'llanmalari soni	10	14	20	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Monografiyalar soni	3	5	6	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Scopus, Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan maqolalar soni	4	8	12	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Respublika jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar soni	55	65	100	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Scopus, Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir maqolaga to'g'ri keluvchi iqtiboslar soni	0,7	1,5	2,5	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
		Ilmiy konferensiyalar soni	4	6	6	Institut, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
3.		Institut professor-o'qituvchilarini	6	10	16	Institut, Madaniyat vazirligi,

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish	jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlariga malaka oshirish, stajirovka o'tash hamda xizmat safarlariga yuborish				Tashqi ishlar vazirligi
	Institutga xorijiy olimlarning tashrifi (kamida 36 soatlik yuklamani bajarish)	10	16	20	Institut, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
	Xalqaro loyihalar soni	2	2	2	Institut, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qaroriga
8-ILOVA

2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha

“YO'L XARITASI”

T/r	Choratadbirlar nomi	Hujjat shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas'ul ijrochilar
1.	Nomoddiy madaniy meros namunalarini YUNESKOning xalqaro ro'yxatlari, shu jumladan, reyestriga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlarini tayyorlash.	Amaliy choratadbirlar	2024-yildan boshlab, reja bo'yicha Kelgusida har 2 yilda	Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya, "Hunarmand" uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
2.	Madaniyat vazirligi tizimidagi badiiy jamoalarga "Xalq havaskorlik jamoasi" hamda bolalar jamoalariga "Bolalar namunali jamoasi" unvonini berish to'g'risidagi nizomni takomillashtirish.	Madaniyat vazirining buyrug'i	2024-yil fevral	-	Madaniyat vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
3.	O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini keng ommaga targ'ib qilish maqsadida ijtimoiy roliklar yaratish va	Amaliy choratadbirlar	2024-yildan boshlab, har yili reja bo'yicha	Ijrochilar mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi,

	ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etish.				O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
4.	Nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy ekspeditsiyalarni tashkil etish.	Xalq deputatlari mahalliy kengashlari qarori	2024-yildan boshlab, har yili reja bo'yicha	Mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
5.	Nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha xorijiy ekspeditsiyalarni tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yildan boshlab, reja bo'yicha	Madaniyat vazirligiga ajratilgan Davlat budjeti manbalari, qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya, Tashqi ishlar vazirligi
6.	Nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yildan boshlab, reja bo'yicha	-	Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
7.	Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti va O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida saqlanayotgan nomoddiy madaniy meros namunalarining (doston, maqom, folklor, xalq qo'shiqlari, cholg'u pyesa va boshqalar) materiallari ishonchli muhofaza qilinishi va ilmiy o'rganilishini ta'minlash maqsadida:	Amaliy chora-tadbirlar			Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Toshkent shahri hokimligi
	San'atshunoslik instituti arxiv		2024-yil	Davlat budjeti mablag'lari	

	xonalarini ta'mirlash va zamonaviy talablarga muvofiq jihozlash;				
	YUNESKO, Xalqaro tovush va audiovizual arxivlar assotsiatsiyasi (IASA) hamda boshqa xalqaro va xorijiy tashkilotlar ekspertlarini jalb etgan holda arxivda materiallarni ishonchli raqamlashtirish masalasini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish;		2024-yil dekabr	Davlat ilmiy dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar, xalqaro va xorijiy grantlar	
	materiallarni raqamlashtirish uchun xalqaro va xorijiy grant loyihalarda ishtirok etish, shuningdek, zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlash;		2024-yil dekabr		
	ijobiy ilmiy-amaliy yechimlar asosida materiallarni raqamlashtirish.		2024-yil oktyabr oyidan boshlab, reja bo'yicha		
8.	Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash maqsadida hududiy chora-tadbirlar dasturlarini tasdiqlash va amalga oshirish.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari qarorlari	2024-yil fevral	Mahalliy budjet va uning qo'shimcha manbalari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
9.	O'zbekiston Respublikasida Nomoddiy madaniy merosning ro'yxatini yuritish	Takliflar	2024-yil dekabr	-	Madaniyat vazirligi

	tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.				
10.	O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan turli millat vakillariga xos bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari o'rganish, tegishli ro'yxatlarga kiritish va muhofazasini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil aprel oyidan boshlab, har yili reja bo'yicha	-	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
11.	O'zbek xalq dostonlarining jonli ijrodan yozib olingan namunalari nashr etish.	Nashr ishlariga doir chora-tadbirlar	2024-yil aprel oyidan boshlab, reja bo'yicha	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
12.	Nomoddiy madaniy meros muammolariga bag'ishlangan respublika, mintaqaviy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish.	Ijrochilar qo'shma qarori	2024-yil aprel oyidan boshlab, har ikki yilda	Madaniyat vazirligiga ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
13.	O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi milliy ro'yxatini yuritish va doimiy yangilab borish. Bunda ilg'or tajribalar, mahalliy va yo'qolish xavfi ostidagi elementlarini o'z ichiga olgan ro'yxatlar inobatga olinsin.	Tasdiqlangan ro'yxatlar	2024-yil yanvar, kelgusida zaruratga ko'ra	-	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
14.	Madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlari talabalari, shuningdek,	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil fevral oyidan boshlab, har yili reja bo'yicha	Ijrochilar mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

	adabiyot va tarix yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarni yozgi taʼtil davrida nomoddiy madaniy meros namunalarini yozib olishga yoʻnaltirilgan ilmiy ekspeditsiyalarga jalb etish.				
15.	Nomoddiy madaniy meros boʻyicha respublika ilmiy tadqiqotlar tanlovini tashkil etish. Gʻoliblarni taqdirlash va eng yaxshi ilmiy maqolalarni toʻplam shaklida chop etish.	Ijrochilarning qoʻshma qarori	2024-yildan boshlab, har yili oktyabr oyida	Ijrochilar mablagʻlari	Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi
16.	Tajribali doʻppidoʻzlar bilan ushbu sohaga qiziquvchi yosh qizlar oʻrtasida “Ustoz-shogird” anʼanasini tashkil etish maqsadida “Uch avlod uchrashuvlari”ni tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yildan boshlab, har yili avgust va sentyabr oylarida	Ijrochilar mablagʻlari	“Hunarmandlar” uyushmasi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi
17.	Nomoddiy madaniy merosimizning unutilish arafasida turgan betakror soʻz va iboralarini toʻplash asosida maqol, matal, afsona, rivoyat va hikoyatlar toʻplamlarini nashr etish.	Nashr ishlariga doir chora-tadbirlar	2024-yil dekabr	Davlat budjeti va homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi
18.	Qorabayir otlarini dunyoga tanitish maqsadida “Qorabayir otlari” milliy brendini yaratish. Bunda:	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yil fevral	Davlat budjeti va homiylik xayriyalari	Milliy gvardiya, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, “Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJ, Surxondaryo viloyati hokimligi,

	<p>“Qorabayir otlari” milliy brendini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;</p> <p>Qorabayir zotli otlar bilan xalqaro ot ko'rgazmalarida ishtirok etish;</p> <p>ot yetishtirib sotuvchi dunyoning yirik kompaniyalari va ot sporti musobaqalari tashkilotchilari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.</p>				O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi, Tashqi ishlar vazirligi
19.	Ot sporti, chavandozlik bilan bog'liq milliy kompyuter o'yinlari, mobil ilovalarni yaratish va musobaqalar tashkil etish.	Ijrochilarning qo'shma qarori	2024-yil mart	Ijrochilar mablag'lari	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
20.	O'zbekistonda o'tkaziladigan tegishli xalqaro madaniyat va san'at festivallari doirasida nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ'iboti bilan bog'liq xalqaro konferensiyalar tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	Xalqaro tadbirlar o'tkaziladigan muddatlar	Xalqaro madaniyat va san'at festivallari tashkil etish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarida ko'rsatilgan manbalar	Madaniyat vazirligi, “Hunarmand” uyushmasi
21.	Ta'lim tashkilotlarida tanaffus vaqtida maqom ijrolari eshittirilishini ta'minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi
22.	Yoshlar o'rtasida nomoddiy madaniy meros targ'iboti bilan bog'liq foto va	Amaliy chora-tadbirlar	2024-yildan boshlab	Ijrochilar mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

	video tanlovlar tashkil etish.				Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi
--	--------------------------------	--	--	--	--

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2023-y., 07/23/405/0979-son)